Ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirishda tibbiy-psixokorreksion maslahat ishlar mazmuni.....	775
Suvanqulova Shaxnoza Karimqulovna	
Blokcheyn texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va imkoniyatlari	780
Suyumov Jo'rabek Yunusaliyevich	



Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	783
<i>Tojibayeva Nazokatxon</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'ri	787
<i>To'xtasinova Nigoraxon Azizxon qizi</i>	
Oliy o'quv yurtlarida analitik kimyo fanini o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari	793
<i>Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi</i>	
Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari	796
<i>Xamidova Nigora Ibrohimovna</i>	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр	800
<i>Абдулаходова Шохида</i>	
Особенности педагогической деятельности и их виды	803
<i>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</i>	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
<i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Maktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida ...	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	
Kasb-hunar maktablarida fizika fanini steam integratsiyasi asosida o'qitishning nazariy-didaktik asoslari ..	878
<i>Mamatxunov Yorkin Abduraimjanovich, Soliyeva Mubinabonu Zokirjon qizi</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyat imkoniyatlari	885
<i>Abidova Nilufar Zakirovna</i>	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	888
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy komponentlari va samarali omillari.....	893
Anvarova Dilfuza Akramjanovna	
O'quv topshiriqlari orqali 6-sinf o'quvchilarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari.....	896
Ashirboyeva Nafisa Aminboyevna	
Talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini takomillashtirish va uning amaliy ahamiyati.....	900
Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna	
Talabalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida reflektiv tafakkurni rivojlantirish	904
Ergasheva Nigora Dilshodjon qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	907
Isabekova Dilafruz Shermirzayevna, Gazibekova Gulavza Ergashovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari.....	913
Murodov Akmal Djayliboyevich	
Maktabgacha ta'lim yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning estetik muomala madaniyatini tarbiyalash.....	917
Po'latova Parida	
Fizika fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi.....	920
Saparova Gulmira Baxtiyorovna	
Rus tilini o'qitishda an'anaviy va audiovizual usullarning qiyosiy tahlili	923
Umarov Aziz Avazovich	
An Analysis of The Importance of Teaching English at the Primary Level.....	927
Vasila Almetova Sunnatullayevna	
Muammoli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash.....	931
Adizova Nodira Baxtiyorovna	
"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy-pedagogik yondashuvlari	936
Akmaljon Xushvaqto'v	
Iqtidorli talabalar bilan ishlash pedagogik muammolari	939
Delov To'liqin Erkinovich	
Rinolaliya nutq nuqsonining anatomik jihatdan kelib chiqishi	945
Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi	
Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons	949
Kholnazarova Vazira Bozor qizi	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency	953
Kosimov Sunnat Ravshan ugli	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends	957
Kuchkarova Xurshida	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida)	964
Madaminov Javlonbek Zafarjonovich	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari	968
Mirzaakbarov Dilshod Dovlatboyevich	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar	971
Musayev Zarifjon Tursunaliyevich	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish	974
Nodira Mirboboyeva	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli	977
Odamboyeva Mehribon Norimon qizi	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
Qurbanova O'g'iloy Axrorovna	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari	985
Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li	
Dizatriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi	992
Shermatova Yukut Sabirovna	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
Soliyeva Diyora Bobur qizi	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
Tojibayeva Nazokatxon	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida	1008
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
Xoshimova Y. I.	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
Xudoyqulova Aziza Anvar qizi	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
Yuldashov Sherzod Sattorovich	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
Жамолова Зарнигор Баходир кизи	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
Haydarova Namuna	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
Mohigul Nizomiddinova	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
Soliyeva Maftuna Tirkash qizi	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
Xamrayeva Iroda Sayfullayevna	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
Xolikova Dilobarxon Maxsitovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
Primkulova Iroda Berdimurodovna	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
Esmuratov Muzaffar Elamonovich	



Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	

ONA TILI DARSLARIDA ZID MA'NOLI SO'ZLARNING O'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDAGI VAZIFALARI

UDK 370.1

Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

<https://orcid.org/0000-0003-1673-4108>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinfdagi ona tili va o'qish savodxonligi darslarida zid ma'noli so'zlarning vazifalari hamda ularni o'rinni qo'llashning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, turli misollar asosida zid ma'noli so'zlarning mohiyati va ularning tildagi ifodaviy imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: zid ma'noli so'zlar, ekspressivlik, paradigmatic munosabat, so'zning o'z ma'nosi, ko'chma ma'no, tazod, integratsiya, zid ma'noli birliklar.

Abstract: This article examines the functions of antonyms in primary school mother tongue and literacy lessons, emphasizing the importance of their appropriate and effective use. It also reveals the essence of antonyms and their expressive potential in language through various examples.

Key words: antonyms, expressiveness, paradigmatic relation, literal meaning, figurative meaning, contrast, integration, antonymic units.

Аннотация: В данной статье рассматриваются функции антонимов на уроках родного языка и чтения в начальных классах, а также подчёркивается целесообразность их использования. Кроме того, с помощью различных примеров раскрывается сущность антонимов и их выразительные возможности в языке.

Ключевые слова: антонимы, экспрессивность, парадигматическое отношение, прямое значение слова, переносное значение, антитеза, интеграция, антонимические единицы.

KIRISH

Til – inson tafakkurining asosiy ifodasi bo'lib, o'quvchilar nutqini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. O'zbek tili leksik jihatdan serqirra bo'lib, unda sinonim, antonim, omonim va paronim kabi turli guruh so'zlar mavjud. Ushbu birliklarning mazmuniy rang-barangligi ona tilining boy ifoda imkoniyatlaridan dalolat beradi. Ular orasida antonim so'zlar nutqqa obrazlilik, aniqlik va ta'sirchanlik baxsh etuvchi samarali vositalardan biri hisoblanadi. Qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan antonimlar nafaqat o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi, balki ularning tafakkurini faollashtiradi, nutqni lo'nda va tushunarli ifodalashga yordam beradi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida antonim birliklar ustida ishlash o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy bog'lanishlarni anglash va nutqiy faollikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, antonimlardan samarali foydalanish o'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etadi, ularning nutqiy qobiliyatini shakllantirishda muhim metodik vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli ona tili darslarida antonimlarni o'rgatishning pedagogik va lingvokognitiv jihatlarini chuqur o'rganish, amaliy topshiriqlar orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'lim metodikasida antonimlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi o'rni ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, o'zbek tilshunosligi va metodikasida A. G'ulomov, N. Mahmudov, A. Madvaliyev, M. Qodirov, S. Meliyev kabi olimlarning tadqiqotlarida antonimlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning badiiy matnlarda qo'llanish imkoniyatlari hamda nutqiy faoliyatni shakllantirishdagi roli yoritib berilgan. Metodika sohasida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, S. Matchonov, Q. Qosimova, M. Yo'ldosheva, D. Xudoyberganova, Sh. Shodmonov kabi olimlar o'z tadqiqotlarida antonimlarni boshlang'ich sinf darslarida o'rgatishning samarali yo'llarini ishlab chiqqan. Ularning ilmiy ishlari tahliliga ko'ra, antonimlardan foydalanish



o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish, matn ustida ishlash malakalarini rivojlantirish, nutqni mantiqiy va izchil ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotlarda antonimlarni o'rgatishda interfaol metodlardan – "klaster", "aqliy hujum", "so'z mozaikasi", "dramatik kontekst" kabi yondashuvlardan foydalanish samaradorligi alohida ta'kidlanadi. Ushbu metodlar o'quvchilarning antonimlarni ongli o'zlashtirishiga, ularni nutq jarayonida faol qo'llashiga yordam beradi hamda ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan, antonimlarni o'rgatishda lingvokognitiv yondashuvni interfaol usullar bilan uyg'unlashtirish hozirgi metodik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodik nuqtayi nazardan qaralganda, antonimlarni o'qitishda bir nechta yondashuvlardan foydalaniladi. Jumladan, ko'rgazmalilik, taqqoslash, semantik tahlil va kontekst asosida o'rgatish usullari o'quvchilarning antonimlarni ongli o'zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa interfaol metodlar – klaster, aqliy hujum, rolli o'yinlar, dramatik kontekst va raqamli viktorinalar orqali antonimlarni o'rgatish samarali natija berishi ta'kidlanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida antonimlardan foydalanish nafaqat lug'at boyligini oshirish, balki o'quvchilarda ijodiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va nutqiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, mavjud adabiyotlarda antonimlarni o'rgatishning lingvokognitiv va metodik jihatlarini birlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbek tili leksik jihatdan boy imkoniyatlarga ega. Tilimizda mavjud bo'lgan antonim, sinonim, omonim, paronim kabi so'zlarning shakl va ma'naviy jihatdan turlari ona tilimizning ifoda imkoniyatlari yanada boyligidan dalolat beradi. Antonim so'zlar nutqning ifodaliligi va ekspressivligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. "Antonimlar (grekcha 'anti' – 'qarshi' va 'onuma' – 'nom') qarama-qarshi ma'noli so'zlar bo'lib, biri ikkinchisini inkor etadi, lekin bu inkor yangi tushuncha bilan bog'liq bo'ladi. Bu tushuncha esa voqea-hodisalarning tabiiy manfiy va musbat tomonlarining mavjudligini hamda ularning o'zaro nisbiy aloqadorligini aks ettiradi^[1]. Masalan: *katta borligi uchun kichik bor, keng borligi uchun tor bor, kecha borligi uchun kunduz bor, yaxshi borligi uchun yomon bor*. Demak, antonim – qarama-qarshi ikki qutbdir." O'quvchilarning so'z boyligini yanada oshirishda antonim so'zlar yuzasidan o'tkaziladigan amaliy topshiriqlar juda yaxshi samara beradi. Zid ma'noli so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olish nutqqa aniqlik, ta'sirchanlik va ifodalilik baxsh etadi hamda nutqning qiziqarli, suhbatdosh uchun maroqli bo'lishiga hissa qo'shadi.

Ona tili fanidan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda zid ma'noli so'zlar yuzasidan xilma-xil topshiriqlar berish mumkin. Antonim so'zlar va ularning nutqda qo'llanishi yuzasidan olingan bilimlarni turli usullar orqali amaliy ko'nikmaga aylantirish mumkin. Antonimlar bir-biriga qarama-qarshi ma'no bildiruvchi so'zlar bo'lib, zidlik ma'nosini paradigmatic munosabatlar yordamida ifodalaydi (o'zaro bir sathga mansub bo'lgan, tildagi qimmat jihatdan bir xil birliklarning bir umumiy belgi asosida o'zaro bir guruhga, ya'ni uyaga birlashuvi tilshunoslikda paradigmatic munosabat deb yuritiladi. Bunday birliklar uchun o'zaro umumiy belgi sifatida ushbu til birliklarining shakli ham, ma'nosi ham asos bo'lishi mumkin). Antonimlik tilga xos bo'lgan juda qiziqarli hodisa sanaladi, aslida u ongimizda zid ma'noli juftlik sifatida mavjud bo'ladi. Bu antonimik juftlikdan birini aytganimizda uning zid ma'noli jufti xayolimizga keladi. Bu juftliklarni topa olish o'quvchilarning so'z boyligi darajasini aniqlab berish bilan birga, ularning fikrlash qobiliyatini o'stirishga ham xizmat qiladi. Quyida berilgan topshiriq aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Topshiriq: quyida berilgan so'zlarning antonimlarini toping va ko'p nuqtalar o'rniga yozing: *bisyor* – ..., *ko'hlik* – ..., *qisqa* – ..., *asta* – ..., *sayoz* – ..., *rost* – ..., *topmoq* – ..., *dangasa* – ..., *tanti* – ..., *kecha* – ..., *hozir* – ..., *yolg'on* – Zid ma'noli so'zlar ba'zan juft so'z shaklida qo'llanib, boshqa turkumdagi so'zga ko'chadi, ya'ni yangi ma'no ifodalaydi. Masalan, *achchiq* va *chuchuk* so'zlari aslida sifat turkumiga oid bo'lib, *maza-ta'm* ma'nosini ifodalaydi. Ushbu so'zlar bir-biriga zid ma'no bildiradi. Ular juftlab qo'llanganda (*achchiq-chuchuk*) ot turkumiga ko'chib yangi ma'no ifodalaydi, ya'ni zid ma'noli so'zlarning juftlashishi orqali yangi ma'noli so'z yasalanadi: "*Achchiq-chuchuk*" (mavsumiy tayyorlanadigan salat nomi) tayyorladim. Bu misoldagi *achchiq-chuchuk* ot turkumiga oid bitta so'z sanaladi. Navbatdagi topshiriq antonimlarga xos bo'lgan ushbu xususiyatga oid bo'ladi.

Topshiriq: antonim juftliklardan hosil qilingan yasama so'zlarga misol keltirish va ma'nolarini izohlang.

Namuna: *keldi-ketdi* (fe'l turkumiga oid antonim so'zlar juftligidan ot yasalgan). Bu topshiriqni o'quvchilar mustaqil bajaradilar.

Topshiriq o'quvchilarning topqirligi, zukkoligi va so'z boyligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tili leksikasidagi ko'pchilik so'zlar alohida, ya'ni nutqdan tashqarida birlamchi ma'noni ifodalaydi, ya'ni o'z ma'nosida qo'llanadi.

Nutq jarayonida boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishganda esa birlamchi ma'nosiga bog'liq bo'lgan boshqa ko'chma ma'noni ham anglatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday so'zlar tilshunoslikda ko'p ma'noli,



ya'ni polisemantik so'zlar deb yuritiladi. "Antonimiya va polisemiya hodisalari o'zaro bog'liqdir: ko'p ma'noli leksema o'zining bosh ma'nosi bilan bitta antonimik juftlikka, hosila ma'nosi bilan esa boshqa antonimik juftlikka kirishi mumkin" [2]. Masalan, "yengil" so'zi ko'p ma'noli so'z bo'lib, uning birlamchi ma'nosi "og'ir" so'zi bilan antonim bo'ladi. Ushbu so'z matn tarkibida "shamol" so'ziga bog'lanib kelganda, "yengil" so'zi "kuchli" so'zi bilan antonim bo'lishi mumkin. Masalan: *yengil qop – og'ir qop, yengil shamol – kuchli shamol*. Nutq jarayonida antonimlardan o'rinni foydalanish ko'nikmasini shakllantirish maqsadida zid ma'noli so'zlarga xos bo'lgan yuqoridagi xususiyatlarga oid topshiriqlarni bajartirish mumkin. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish va ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Nutqni boyitish, ifodali va aniq fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda antonimlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Chunki antonimlar o'quvchilar tafakkurida ma'no qarama-qarshiligini anglash, taqqoslash va umumlashtirish jarayonlarini faollashtiradi.

O'zbek tilshunosligi va metodikasida antonimlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning badiiy nutqdagi roli ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ammo ularni boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy rivojlanishiga yo'naltirib o'qitish, xususan, lingvokognitiv nuqtai nazardan metodikasini ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Chunki hozirgi zamon ta'lim tizimi nafaqat bilim berishni, balki o'quvchilarda ijodiy tafakkur, mustaqil nutqiy faoliyat va muloqot madaniyatini shakllantirishni ham talab etmoqda. Antonim birliklar ustida olib borilgan mashg'ulotlar o'quvchilar nutqida obrazlilik, aniqlik va ekspressivlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, antonimlar asosida tuzilgan mashqlar bolalarda lug'at boyligini kengaytiradi, matnni anglash va uni ifodali qayta hikoya qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, turli interfaol metodlar yordamida antonimlarni o'rgatish o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi va ularning qiziqishini oshiradi. Bugungi kunda xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda antonimlarni o'qitishning nazariy asoslari ma'lum darajada ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Shu bois ushbu tadqiqotda antonimlarni o'qitishning metodik asoslarini tahlil qilish, ularning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib qo'yildi.

Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlardan (antonimlardan) foydalanish o'quvchilarning nutq madaniyatini, mantiqiy fikrlashini va til sezgirligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zid ma'noli so'zlar orqali o'quvchilar so'zlarning ma'no nozikliklarini anglaydi, ularni nutqda to'g'ri va o'rinni qo'llashni o'rganadi. Bu jarayon o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytiradi, fikrni aniq, lo'nda va ta'sirchan ifoda etish ko'nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, antonimlardan foydalanish o'quvchilarda tahliliy tafakkur, solishtirish va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Zid ma'noli so'zlar asosida tashkil etilgan mashqlar va nutqiy topshiriqlar o'quvchilarning tilni faol o'zlashtirishiga, og'zaki va yozma nutqda uslubiy to'g'rilikni ta'minlashiga xizmat qiladi.

XULOSA

O'quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini shakllantirishda pedagogikaning o'rni beqiyosdir. Bu, avvalo, o'qituvchining erkin va aniq, ravon nutqiga bog'liq bo'lib, o'quvchilarning nutqi hamda tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali shartlaridan biridir. O'qituvchi o'z nutqining bolalarga qanday ta'sir ko'rsatayotganini doimiy kuzatishi, uni tushunarli, mazmunli va qiziqarli tarzda ifoda etishi zarur. Agar o'quvchilar darsda e'tiborsiz bo'lib o'tirishsa, bu o'qituvchi nutqining ta'sir kuchi yetarli emasligini bildiradi. O'qituvchining mahorati shundaki, u o'zining yoqimli, ifodali va mantiqan izchil nutqi orqali nafaqat ta'lim-tarbiya beradi, balki o'quvchilarni yuksaklikka, ezgulikka va ijodkorlikka chorlay oladi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, tilimizda antonim birliklardan foydalanish imkoniyatlari juda keng. Ulardan to'g'ri va o'rinni foydalanish nutq boyligini oshiradi, fikr ifodasining aniqligi va obrazlilikini ta'minlaydi. Umuman olganda, ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'rganilishi o'quvchilarning til madaniyatini oshirish, muloqot kompetensiyasini rivojlantirish, ijodiy va mustaqil fikrlash salohiyatini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o'z navbatida shaxsning ma'naviy va intellektual kamolotiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Imomovna, U. M. (2023). Antonimlardan o'rinni foydalanish ko'nikmasini shakllantirish. Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali, 3(5), 89–91.
2. Xusanova, G. T. Qizi. (2024). Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlashning lisoniy va kognitiv jihatlari. Science and Innovation, 3(Special Issue 24), 184–186.
3. Khusanova, G. T. K. (2021). Verbal Calculation and Mental Arithmetic in Primary School. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 1(11), 34–37.
4. Gulruxsor, X. (2020). Kreativ pedagogikaning eng muhim jihatlari va yutuqlari. Yangilayotgan O'zbekistonda fan, ta'lim va innovatsiya uyg'unligi, 348–350.
5. Saidova, R. Akramjonovna. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini "Tilga e'tibor – elga e'tibor" ruhida tarbiyalash. Innovation in the Modern Education System, 2(18), 833–836.
6. Abdullayeva, Z. Akmaljonovna. (2023). Education Creation Training Multimedia – Means. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1777–1784.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.